



---

1  
2023

# FIZIKA, MATEMATIKA *va* INFORMATIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2001-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2023

**Bosh muharrir – Xolboy IBRAIMOV pedagogika fanlari doktori, professor**

**Muharrir – Bakhshillo Amrillayevich OLIMOV f.-m.f.n., v.v.b., professor**

**Mas’ul kotib – Riskeldi Musamatovich Turgunbayev f.-m.f.n., professor**



### **TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI**

**I BRAIMOV Xolboy**

**AYUPOV Shavkat Abdullayevich**

**OLIMOV Bakhshillo Amrillayevich**

**AKMALOV Abbos Akromovich**

**KUVANDIKOV Oblokul**

**IBRAGIMOV Berdimurot**

**MUXAMEDYAROV Kamildjan Sadikovich**

**MANSUROV O’ktamjon Nosirboyyevich**

**TURGUNBAYEV Riskeldi Musamatovich**

**KALANDAROV Ergash Kilichovich**

**MUSURMONOV Raxmatilla**

**MAXMUDOV Abdulxalim Xamidovich**

**MAMARAJABOV Mirsalim Elmirzayevich**

**Muassis:**

**T.N.Qori Niyoziy nomidagi O’zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti  
71 256 53 57**



## MAKTAB MATEMATIKA DARSLARIDA O'RGANILADIGAN MATNLI MASALALARINI YECHISH MODULI

*G.B.Quzmanova, F.S.Aktamov, Chirchiq DPU o'qituvchilari.*

*D.Boltayeva, Chirchiq DPU talabasi.*

*F.B.Xurramova, Toshkent viloyati Chirchiq shahar  
15-IDUM matematika fani o'qituvchisi.*

Matnli masalalar maktab matematika kursining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli umumiyo o'rta ta'limg maktabi matematika darslaridagi matnli masalalar elementar matematikaning an'anaviy bo'limidir. Matnli masalalar turlari va ularni yechishning bir necha usullari mavjud. Biz mazkur maqolada konsentratsiyaga va aralashmaga doir matnli masalalarni yechish moduli orqali o'quvchilarda fikrlash, diqqat va kuzatuvchanlik, kichik tadqiqotlarni mustaqil amalgalashish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini berishini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** maktab, matematika, konsentratsiya, aralashma, matnli masala, ta'limg-tarbiya, yechish, texnologiya, o'quvchi, usul, innovatsiya, o'qitish.

Текстовые задачи – одно из основных понятий школьного курса математики. Поэтому текстовые задачи на уроках математики в общеобразовательной школе являются традиционной частью начальной математики. Существует несколько типов текстовых задач и способов их решения. В этой статье через модуль решения текстовых задач на концентрацию и смешение мы позволим учащимся развивать мышление, внимание и наблюдательность, самостоятельное выполнение небольших исследований, их навыки.

**Ключевые слова:** школа, математика, концентрация, макс, текстовая задача, образование, решение, технология, ученик, метод, инновации, обучение.



*Text problems are one of the basic concepts of the school mathematics course. Therefore, text tasks in mathematics lessons in a secondary school are a traditional part of elementary mathematics. There are several types of text problems and ways to solve them. In this article, through the module for solving text problems for concentration and mixing, we will allow students to develop thinking, attention and observation, independent performance of small studies, their skills.*

**Key words:** school, mathematics, concentration, mix, word problem, education, solution, technology, student, method, innovation, learning.

Respublikamizda hozirgi paytda umumiy o‘rta ta’limni modernizatsiyalash, professional kadrlarni tayyorlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash orqali yoshlarga ta’lim-tarbiya berish hamda maktab matematika darslarida matnli masalalarni turli ko‘rinishlarda yechish uslublarini innovatsion takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnalogiyalaridan foydalanishni kengaytirish» [1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, Uchinchi Renessans jarayonida umumiy o‘rta ta’limni innovatsion rivojlantirish, ta’lim sifatiga erishish va ta’lim oluvchilarning bilimdonlik darajasini xalqara talablarga yetkazishda matematika fanidan mantli masalalarni yechish uslublarini innovatsion takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Matnli masalalarda amalyotda olingan vaziyatlar haqida so‘z ketadi. Ular nafaqat tenglamalar va ularning sistemalarini yechish ko‘nikmalarini, balki matematik mutanosibliklar yordamida hayotiy hodisalarini tasvirlash ko‘nikmasini tekshirish imkonini beradi.

Maktab matematika kursida matnli masalalar quyidagi ko'rinishlarga ajratilgan: "Harakatga doir", "Ishga doir", "Foizga doir", "Konsentratsiyaga doir", "progressiyaga doir", "Iqtisodiy mazmundagi", "kombinatorikaga doir" masalalardir. Biz ushu maqolada konsentratsiya va aralashmaga doir matnli masalalarini yechish usullarini keltirib o'tamiz.

Bu turdagি masalalar sanoatda, tibbiyotda va kundalik turmushda ham bir necha elementlardan muayyan proporsiyali qorishma, aralashma tayyorlash natijasida tug'iladi. Masalan, qurilishda qum va sement qorishmasi, xamir tayyorlanayotganida suv va tuz, tibbiyotda suv va spirt aralashmasini tayyorlash hamda ular shunchaki aralashma emas, balki ularning miqdori muayyan proporsiyada bo'lishi kerak. Shunday amaliy masalalarini yechish jarayonida asosiy tushuncha "konsentratsiya" hisoblanadi.

Suvga tuz tashlasak, muayyan vaqt o'tgach tuz donalari suvda erib, tuzning suvli eritmasi paydo bo'ladi. Agar tuz massasi eritma massasining 11 %ini tashkil qilsa, u 11 %li eritma yoki konsentratsiyasi 11 % bo'lgan eritma deb ataladi. Masalalarni yechish quyidagi tushunchalarni aniqlashtirishga asoslangan:

- moddaning aralashma massali konsentratsiyasi;
- moddaning aralashmadagi foizli konsentratsiyasi;
- moddaning aralashmadagi hajmli konsentratsiyasi;
- moddaning hajmli foizli konsentratsiyasi.

Quyidagi holatlarni doim nazarda tutish lozim:


1. Qaralayotgan barcha aralashmalar (qorishma, qotishma) bir jinsli.
2. Sig'im birligi sifatidagi litr va massa birligi bir-biridan farqlanmaydi.
3. Qorishma komponentlari o'rtasida kimyoviy va boshqa reaksiyalar mavjud emas.

**1-masala.** Yangi uzilgan meva 85% suvdan iborat. 600 kg shunday mevani quritishda 400 kg suv bug'langan bo'lsa, quritilgan mevani necha foizini suv tashkil etadi?



**Yechish:**  $m$  va  $p$  mevaning umumiyl massasi va uning tarkibidagi suvning protsentli miqdori,  $\Delta m$  esa bug'lantirilgan suv massasi bo'lsin. Quritilgan meva tarkibidagi qolgan suvning protsentli miqdorini  $q$  bilan belgilaymiz. Masalada  $q$  noma'lum. Yangi yig'ilgan mevada  $\frac{m \cdot p}{100}$  miqdorda suv bo'ladi. Mevaning suvdan "ajratilgan" qismi massasi  $m - \frac{m \cdot p}{100}$  ga teng. Bu quritilgan meva massasi  $m - \Delta m$  ning  $100 - q$  foizini tashkil etadi. Bu esa  $m - \frac{m \cdot p}{100} = \frac{(m - \Delta m) \cdot (100 - q)}{100}$  tenglikda ifodalanadi. Oxirgi tenglikdan noma'lum  $q$  ni quyidagicha aniqlaymiz:

Ushbu hosil bo'lgan formula qo'yilgan masalani umumiyl tarzda yechish formulasidir. Masala shartiga ko'ra, berilganlarni yozib olamiz.




2-masala. 28 kg 16% li tuzli eritmadan 14% li tuzli eritma hosil qilish uchun unga necha litr chuchuk suv quyish kerak?

Yechish: Masalada eritmaning massasi  $m$ , konsentratsiyasi  $p$ ,

qo'shiladigan chuchuk suvning massasi , chuchuk suv qo'shilganidan keyingi konsentratsiyasi q deb belgilaymiz va dastlabki eritmadi tuz miqdori ga teng bo'ladi. Unda chuchuk suv qo'shilganidan keyingi massa bo'lsin, eritmaning tarkibidagi tuz massasi eritmaning q foizini tashkil etadi. Bundan quyidagi ifodani chiqaramiz:

Ushbu ifodani soddalashtirsak, hosil bo'ladi. U holda, masala yechimini hosil bo'lgan formuladan foydalanim topamiz.



Endi ikki eritmadan uchinchi eritmani tayyorlashga doir masalalarni tahlil qilamiz.

**3-masala.** Agar 8 foizli 4 kg eritmani 6 foizli 3 kg eritmaga aralashtirilsa, necha foizli eritma hosil bo'ladi?

**Yechish:** Berilgan masalani quyidagi tartibda yechishni amalga oshiramiz. Dastlab birinchi eritmaning massasini  $m$ , konsentratsiyasini  $p$ , ikkinchisini  $n$  va  $q$  bilan belgilaymiz. Ikkala aralashmadan hosil bo'lgan eritmaning massasini  $m + n$  va undagi tuz miqdorini topish uchun birinchi eritmadi tuz miqdorini  $\frac{m \cdot p}{100}$  ga, ikkinchi eritmadi tuz miqdorini  $\frac{n \cdot q}{100}$  ning yig'indisiga  $\frac{m \cdot p + n \cdot q}{100}$  teng bo'ladi. Endi

tuz miqdorini  $\frac{n \cdot q}{100}$  ning yig'indisiga  $\frac{m \cdot p + n \cdot q}{100}$  teng bo'ladi. Endi



esa massasi  $\frac{m \cdot p + n \cdot q}{100}$  ga teng bo‘lgan tuz massasi  $m + n$  ga teng

bo‘lgan eritmaning necha foizini tashkil etishini topishimiz kerak. Unda ikki eritmani aralashtirishdan hosil bo‘lgan eritmaning kansentratsiyasini

$$r \text{ deb belgilab, } r = \frac{\frac{m \cdot p + n \cdot q}{100} \cdot 100}{m + n} = \frac{m \cdot p + n \cdot q}{m + n}, \quad r = \frac{m \cdot p + n \cdot q}{m + n} \text{ ni}$$

hosil qilamiz [2].

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rtta ta’lim maktablari matematika darslarida matnli masalalar muhim o‘rin egallaydi. Matnli masalalarning tasnifi bilan ko‘plab olimlar shug‘ullanganlar. Quyida maktab matematika kursida o‘rgatiladigan matnli masalalarning ko‘rinishlari, turlari, nazariy va amaliy xususiyatlarini ham matematik tilda talqin qilib berganlar. Umumiy o‘rtta ta’lim maktab o‘quvchilariga matematika darslarida mantli masalalarni yechishda tenglamalarning o‘rni ularning nazariy xususiyatlariga doir metodik tavsiyalar hamda o‘quvchilarni matematikani o‘qitishda masalalarning ma’naviy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati, yechishning bir necha uslublari orasidan ongli ravishda eng qulayini tanlagan holda masalalarning optimal yechimlari innovatsion yondashuvlar bilan boyitilgan holda ishlab chiqish asosiy vazifalarimizdan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2. Yodaki hisob arifmetikasi [Matn] / Sh. Davron. Toshkent: “Akadem nashr” NMM, 2016.

## MUNDARIJA

<b>Ш.Б. Утамурадова, И. Холбаев.</b> О жизненном пути академика Т.М.Муминова.....	3
<b>ILMIY-OMMABOP BO'LIM</b>	
<b>М.К. Халикова.</b> Информационные компетенции как условие реализации парадигмы <i>lifelong learning</i> в контексте общества знаний.....	10
<b>MATEMATIKA JOZIBASI</b>	
<b>F.A.Нафасов, Д.Э.Абдураимов, Р.Ў.Худойқулов.</b> Синфадаги объектлардан локал метрика бўйича мантиқий қонуниятларни топишинг математик модели ва унинг дастурий таъминоти.....	19
<b>N.R. Zaynalov, P.F. Nasriddinova, M.A. Yaxuyoyev.</b> Billiard masalasi yechimi haqida .....	26
<b>G.B. Quzmanova, F.S. Aktamov, D. Boltayeva.</b> Maktab matematika darslarida o 'rganiladigan matnlı masalalarни yechish moduli.....	31
<b>ILG'OR TAJRIBA VA O'QITISH METODIKASI</b>	
<b>S.X. Dottoyev.</b> Axborot ta'lim muhiti o 'quv-ilmiy resurslarini yaratish mazmini .....	37
<b>Г.Б.Нафасова.</b> Бўлајсак физика ўқитувчиларининг мантиқий компетентлилигини ривоҷлантиришида мантиқ қонуналарини қўллаш .....	44
<b>OLIMPIADA VA MASALALAR YECHISH BO'LIMI</b>	
<b>Masalalar va yechimlar .....</b>	51
<b>TALAB, TAKLIF VA TAHLIL</b>	
<b>J.Djumanov, Kh. Egamberdiyev, B. Murodullayev, D. Haknazarov.</b> Numerical calculation of groundwater geofiltration processes in multilayer porous media.....	64
<b>D.A. Yusupov.</b> Yadro fizikasi bo'limlarini o 'qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish .....	75
<b>F.O. Dadaboyeva, E.Y.Nurmatova, M.Rahimberdiyeva.</b> Astronomiyani o 'qitishda "keys study" texnologiyasidan foydalanish .....	85
<b>K.Mamatkarimov.</b> Talabalarning kredit modul tizimida o 'quv-bilish faoliyatini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish .....	90
<b>D.X. Turdiboev,</b> O 'quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda pedagogik omillarni korelyatsion tahlil qilish .....	96
<b>A.M. Ahmedov.</b> Talabalarning axborot kompetentligini oshirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish .....	103
<b>Г.А.Нафасов, Х.Р.Умаров.</b> К построению математической модели одной задачи движения грунтовых вод .....	110



---

---

Jurnalning ushbu sonini  
tayyorlashda qatnashganlar:

*B. Olimov, F. Saidova, M. Ashurova , R. Turgunboyev, F. Ochilov  
Kompyuterda sahifalovchi: M. Dadanova.*

*O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida  
№ 0103 tartib raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Filologiya,  
Pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi  
(21.04.2014. №4) va Rayosat qarori (30.04.2014. №205/3) ga asosan  
fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar jurnallari ro'yxatiga «Fizika,  
matematika va informatika» jurnali kiritilgan.*

**Tahririyat manzili:  
Toshkent shahri, Bratislava ko'chasi, 2-uy.  
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari  
ilmiy tadqiqot instituti**

FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA jurnali

**Web-site: <http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika,informatika.htm>  
E-mail: [fizmat\\_jurnali@inbox.uz](mailto:fizmat_jurnali@inbox.uz)**

Bosishga ruxsat etildi.20.02.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .  
Ofset bosma usulida bosildi. 6 bosma taboq.  
Adadi nusxa. Buyurtma №

**“BIZNES POLIGRAF” MCHJ bosmaxonasi,  
Toshkent shahar, Sh. Rustaveli ko'chasi, 156 uy.**

